

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”



Sh. Sharipov.



“KELISHILDI”

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil 25

Ro'yhatga olindi: BD -5110800-3.03

2018 - yil 18 08

**TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASINI
O'QITISH METODIKASI**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000	– Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110800	– Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "20" 08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Adilov P.O. - «Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Abdirasilov S. - «Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Ro'ziev E.I. - Urgench Davlat universiteti «Texnikaviy va badiiy grafika» kafedrasida mudiri, p.f.d., professor.

Ashirboev A.O. - «Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti.

Taqrizchilar:

Xurboyev N. - TTESI «Chizma geometriya va kompyuter grafikasi» kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Nurtoyev O. - Toshkent arxitektura-qurilish kasb-hunar kolleji direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil 8.06 dagi 4 -sonli bayonnom).

1. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» o'quv fani bo'yicha to'liq kursni tugatgandan so'ng bo'lajak bakalavrlar quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining mazmuni, ta'lim tizimida tutgan o'rni;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar bilan bog'liqligi;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning didaktik printsiplari, zamonaviy metodlari va texnologiyalari, o'qitish vositalari, darslarni loyihalash va modellashtirishning nazariy asoslari;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining asosiy mavzulari bo'yicha dars o'tish metodikasi va darsdan tashqari ishlarni;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarining xususiyatlarini, o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'atga oid fanlarini muvaffaqiyatli o'qitishni tashkil qilish;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitishda uning janrlari, texnologiyalariga xos mazmuni bilishi;

Talabalar bu fan bo'yicha quyidagi ko'nikmalarni hosil qilgan bo'lishi lozim:

- tasviriy san'at faniga o'quvchida mehr uyg'ota olish;

- tasviriy san'at fanini o'qitishda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llay olish;

- tasviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash va rag'batlantirish;

- tasviriy san'at fanining darslari, ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarini yurita bilish;

- tasviriy san'at darslarini rejalashtirish

II. O'quv fanining maqsad va vazifasi

«Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» fani umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarda muhandislik grafikasi tarkibidagi fanlarning mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarda shu fan bo'yicha puxta bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metodik vositalarni tanlashda bo'lajak o'qituvchilarga yordam berishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta'lim sohasida ham bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlar mutaxassislariga yangi funksional talablarni qo'ya boshladi. Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalar talab qilinadi va mutaxassis o'qitish metodlari va yo'llari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo'llari va vositalarini bilishi lozim. Talabalarning bu bilimlarni puxta egallashiga yordam berish

«Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» kursining asosiy vazifalaridan biridir. Uning oldida pedagogika fani tarmog'ining sifatida quyidagi vazifalar turadi:

- muhandislik grafikasini o'qitishning aniq maqsadlarini va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatlarini aniqlash;
- o'qitishning mazmuni va tuzilishini aniqlash;
- o'quvchilarning mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlovchi o'qitishning eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish.

Muhandislik grafikasi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashda «Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» fani yakunlovchi fanlardan bo'lib, u chizmachilik o'qituvchisini mutaxassis bo'lib shakllanishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu fan ishchi dasturi hozirgi zamon pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan holda hozirgi fan yutuqlari va metodika sohasidagi ilg'or pedagogik yutuqlar hisobga olinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- chizmachilik fani va uning asoslari: chizma geometriya, konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (KHYAT), unga kiruvchi Davlat standart (DAST)lari, pedagogika, psixologiya hamda mutaxassislik fanlaridan puxta *bilimga* ega bo'lishi;
- o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda muxandislik grafikasiga oid fanlarini muvaffaqiyatli o'qitishni tashkil qilish;
- o'qitish vositalari, zamonaviy metodlar, darslarni loyihlash va modellashtirish;
- o'quvchilarning grafik tayyorgarligini oshirishning turli nazariy tomonlarini;
- fanning asosiy mavzulari bo'yicha dars o'tish metodikasi.

Talabalar bu fan bo'yicha quyidagi ko'nikmalarni hosil qilgan bo'lishi lozim:

- Muhandislik grafikasiga oid fanlarni boshqa ilmlar bilan o'zaro aloqalari, uning fan, texnika, ishlab chiqarish, kundalik turmushdagi ahamiyati hamda rivojlanishi tarixi va istiqboli haqida tasavvur qila olishi va keyinchalik uzining ilmiy ishlarida foydalanish uchun zamin bo'la olish darajisida o'rganishi;
- talabaning kelgusi pedagogik faoliyatida muqarrar bo'lgan o'zgarishlarga qiyinchiliksiz moslashishi va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini hosil qilgan bo'lishi;
- turli adabiyotlardan foydalana bilishi, ko'rgazmali qurollar (plakat, model, maket, kartochka-topshiriqlar, ijodiy xarakterdagi vazifalar) tuza olishi;
- tashabbuskorlik va tadbirkorlik, muammolarni hal qila olish, muomala madaniyati va hamkorlikda ishlash kabi *ko'nikmalarini* egallagan bo'lishi.
- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining nazariy asoslari, tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi haqidagi ma'lumotlarga oid nazariy fikrlarni bayon qilishi, ayni masalalarda o'zining nuqtai nazarini asoslab berish *malakasiga ega bo'lishi lozim*.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi

1. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Kurs dasturining mohiyati, mazmuni. «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» fanining maqsadi va vazifasi. Metodika. Umumiy metodika. Xususiy metodika. Amaliy metodika. O'qitish metodikasi (Nutqiy, namoyish etish, amaliy ish). Umumiy o'rta ta'lim maktab va kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining o'rni va maqsadi. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi yuzasidan zarur adabiyotlar va ular bilan ishlash usullari.

1-modul. Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan. Rossiya va qalamtasvir o'qitish metodikasi.

«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» fanini o'qitishga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, qadimgi Rim) ma'lumotlar va ularning xarakteri. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Ch. Chennini, Alberti, Leonarfo da Vinchi, A. Dyurer). XVII-XIX asrlarda G'arbiy Evropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar.

XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o'rni. I.D. Preysler, A.G. Sapozhnikov, G.A. Gippiuslarning tasviriy san'at o'qitish metodikalarining rivojlanishidagi o'rni. P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiyning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o'qitish usullari.

2-modul. O'rta Osiyo va O'zbekistonda, mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atning o'qitilishi.

Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. O'rta Osiyo eron, Misr miniatyurasi. Islom dini kirib kelgunga qadar O'rta Osiyo tasviriy san'ati. Kitoblarga bezak ishlash maktabi (K.Behzod). Samarqand, Buxoro maktablari. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar. O'zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga «Erkin tarbiya» nazariyasining ta'siri. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishining shakllanishi. Ikkinchi jaqon urushi va undan keyingi birinchi o'n yilliklarda tasviriy san'atni o'qitilishi. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash. Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi.

Tasviriy san'at ta'limi kontsepsiyasi. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at davlat ta'limi standartlari. Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar davlat ta'lim standartlari. O'qituvchilarni o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlar.

3-modul. Umumiy o'rta maktab va kasb-hunar kollejlarda tasviriy ta'limning maqsad va vazifalari, mashg'ulotlarining mazmuni.

Umumta'lim maktab va kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari. Tasviriy san'atni maktabdagi boshqa o'quv fanlari samaradorligini oshirishdagi aqamiyati. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Maktab va kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarining mazmuni. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining mazmuni davlat ta'lim standartlari bilan bo'liqligi. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari: borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari. Mashg'ulot turlarining vazifalari. 1-4 va 5-7 sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari.

Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari: qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san'at tarixi, haykaltaroshlik. Mashg'ulot turlarining vazifalari. 1-2-3 kurslarda tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmunining o'ziga xos xususiyatlari.

4-modul. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi davlat ta'lim standartlari (maktab, kollej, oliy ta'lim).

Tasviriy san'atdan maktab, kollej va oliy o'quv yurtini davlat ta'lim standartlari va uning mohiyati. Maktab, kollej va oliy o'quv yurtida tasviriy san'at fanlaridan o'quvchi talabalar bilimiga qo'yiladigan minimal talablar. Davlat ta'lim standartini nazorat qilinishi. Davlat ta'lim standartida tasviriy san'atning mutaxassislik fanlari maqsad va vazifalarining belgilanishi. Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etilishi.

5-modul. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitishda didaktik prinsiplar.

Ta'lim sohasidagi islohatlar asosidagi mavjud prinsiplar (insonparvarlik, gumanizm, demokratizatsiya, integratsiya, differentsiatsiya va individualizatsiya). Didaktik prinsiplar va ularni tasviriy san'atni o'qitishdagi ahamiyati. Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplarning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. Ilmiylik prinsipi. Onglilik va faollik prinsipi. Ta'limni o'quvchilarning yoshi va kuchiga mosligi prinsipi. Muntazamlik va ketma-ketlik prinsipi.

6-modul. Boshlang'ich sinflarda va 5-7 sinflarda «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi»

Boshlang'ich sinflarda borliqni idrok etish mashg'ulotlari metodikasi. Boshlang'ich sinflarda naturaga qarab tasvirlash, (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab xaykal ishlash) metodikasi. Boshlang'ich sinflarda rangtasvir mashg'ulotlari metodikasi. Boshlang'ich sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasi. Boshlang'ich sinflarda haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi.

5-7 sinflarda naturaga qarab tasvirlash metodikasi. 5-7 sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda san'atshunoslik asoslari.

7-modul. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi.

Kasb-hunar kollejlarda qalamtasvir mashg'ulotlarining metodikasi. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlarining metodikasi. Kasb-hunar kollejlarda kompozitsiya mashg'ulotlarining metodikasi. Kasb-hunar kollejlarda san'at tarixi mashg'ulotlarining metodikasi. Kasb-hunar kollejlarda haykaltaroshlik mashg'ulotlarining metodikasi.

8-modul. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi»dan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash.

Maktab va kollej o'quvchilariga tasviriy san'atdan beriladigan topshiriqlarning shakllari. Sinf yoki auditoriyada va uyda bajariladigan topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati. O'quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari. Joriy (baholash) nazorat. Oraliq(baholash) nazorat. Yakuniy (baholash) nazorat. O'quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari. (Og'zaki so'rov, mashq, tasviriy ijodiy mustaqil ish, yozma ish, test sinovlari, uy vazifalari).

Borliqni idrok etish, naturadan ishlangan rasmlar, naturaga qarab ishlangan haykallar, rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, san'atshunoslik asoslari bo'yicha qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va san'at tarixi fanlari bo'yicha o'quvchi(talaba)larning bilim va malakalarini baholash mezonlarini o'ziga xos xususiyatlari.

9-modul. «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi»dan darsdan tashqari ishlar.

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlarining maqsad va vazifalari. Maktabda tasviriy san'atdan fakultativ mashg'ulotlar, to'garaklar va ularning turlari. Maktabda tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar.

10-modul. «Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.

O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatdagi o'rni. O'qituvchining ma'naviy va kasbiy sifatlari. Mahoratli o'qituvchi – dars tashkilotchisi, ilhomlash-tiruvchisi. Oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisi – san'atshunos – rassom – pedagog, uning funksional vazifalari. Mahoratli o'qituvchi va zamonaviy innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar. O'qituvchi faoliyatida rassom-pedagog va xalq ustalarining ilg'or tajribalarini o'rni. O'qituvchi faoliyati psixologik sifatlarining ahamiyati.

12-modul. «Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.

O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o'rni. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Innovatsion va interfaol usullar. Moduli o'qitish. Masofali o'qitish. O'qituvchining tasviriy ijodiy ishlari.

Tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati va uning turlari. Tabaqalashtirib

o'qishning ijobiy va salbiy jihatlari. Darajali va ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish. Individual ta'lim. Guruhl ta'lim. Tabaqalashtirilgan sinflar ta'limi. Tabaqalashtirilgan maktablar ta'limi. Tabaqalashtirilgan ta'limda tashxis o'tkazish. O'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan holda dars o'tish metodikasi.

13-modul. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» xonasini tashkil etish va jihozlash.

Maktab va kollejda tasviriy san'at xonasining ahamiyati. Tasviriy san'at (qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san'at tarixi, haykaltaroshlik) xonasining jihozlari va o'quv qurollari bilan ta'minoti. Tasviriy san'at xonasida olib boriladigan ta'limiy va tarbiyaviy ishlar. Tasviriy san'at xonasiga bo'lgan talablar. Xonani zamonaviy ko'rgazmali badiiy vositalar bilan jihozlashda o'quvchilarning ishtiroki. Tasviriy san'at xonasining badiiy bezagi. Xonaning ish rejasi.

Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi.

14-modul. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasining fan sifatida o'qitilishi, rivojlanishi, uning maqsad va vazifalari. Chizmachilik darslarini tashkil qilish.

1-mavzu. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi fani va uning rivojlanish tarixi. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.

2-mavzu. Maktabda chizmachilik o'qitishda gumanitar, politexnik, ijodiy va umummadaniy yo'nalishlarni amalga oshirishning metodik usullari. Muhandislik grafikasining boshqa fanlar bilan aloqalari.

3-mavzu. Chizmachilik darslarini tashkil qilish va o'qitish metodlari.

4-mavzu. Chizmachilik o'qitish metodikasida qo'llaniladigan ilmiy - tadqiqot bosqich va metodlari. Ta'limning didaktik prinsiplari.

15-modul. Maktab chizmachilik kursining tuzilish va mazmuni. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish. Darsga tayyorlanish.

1-mavzu. Maktab chizmachilik kursining tuzilishi va mazmuni, darslarni loyihalash va modellashtirish.

2-mavzu. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish, o'qituvchining darsga tayyorlanishi, chizmachilik kabinetini jihozlash.

3-mavzu. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qo'llanmalar.

16-modul. Umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarda chizmachilik o'qitishining o'ziga xos xususiyatlari.

1-mavzu. Umumta'lim maktablarda chizmachilik fanini chuqurlashtirib o'rganish

2-mavzu. Kasb-hunar kollejlarda chizmachilik o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

17-modul. Chizmachilikning asosiy mavzularini o'qitish metodikasi.

1-mavzu. Umumta'lim maktablarda 8-sinfda chizmachilikdan tanishtirish darsini tashkil qilish

2-mavzu. O'quvchilarni geometrik yasashlarni bajarishga o'rgatish.

3-mavzu. To'g'ri burchakli proektsiyalash metodini o'rgatish usullari.

4-mavzu. O'lcham qo'yish va ba'zi shartliliklarni o'rgatish

5-mavzu. O'quvchilarni aksonometrik proeksiya va texnik rasm bajarishga o'rgatish metodikasi.

6-mavzu. O'quvchilarni kesim va qirqim bajarishga o'rgatish metodikasi

7-mavzu. Mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish metodikasi.

8-mavzu. Sxemalar va qurilish chizmalarini o'qish va bajarishni o'rgatish metodikasi

18-modul. Grafik va diagrammalarni bajarishga o'rgatish

19-modul. Chizma bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar.

IV. Amaliy mashg'ulotlar 5 semestr

1. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi dasturini o'rganish va rejalashtirish.

2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash.

3. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

4. Pedagogik tasvirlar ishlash.

5. Pedagogik tasvirlar uchun - «Flora».

6. Pedagogik tasvirlar uchun - «Fauna».

7. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.

8. Tasviriy san'at darslarini metodik jihatdan ta'minoti.

9. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulotlaridan namunaviy darsni tashkil etish va o'tkazish

10. O'quvchilarni chizma standartlari bilan tanishtirish va chizmani taxt qilishga o'rgatish.

11. Bo'lg'usi chizmachilik fani o'qituvchilarining sinf doskasida ishlashi va o'quvchilar grafik madaniyatini shakllantirish usullari

12. Avtomatlashtirilgan o'qitish dasturlari. Shizmachilik darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi.

13. Pedagogik faoliyat va ergonomika.

VI. Laboratoriya mashg'ulotlar

1. Chet el tasviriy san'at o'qitish metodlari tarixi haqida.

2. Rossiya tasviriy san'at o'qitish metodlarining o'ziga xos ko'rinishlari.

3. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.

4. Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.

5. Tasviriy san'at ta'limida didaktik printsiplar.

6. Umumta'lim maktablarda tasviriy san'at fanini o'rganish.

7. Sinf doskasida bo'r bilan ishlash.

8. Tasviriy san'atdan darslarni loyihalash va modellashtirish.

9. Muhandislik grafikasining boshqa fanlar bilan aloqalari.

10. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish.

11. O'qituvchining darsga tayyorlanishi.

12. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qo'llanmalar.

13. Geometrik yasash mavzusiga oid darsni tashkil qilish.

14. Aksonometrik proeksiya mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
15. O'quvchilarga chizmani o'qishni va bajarishni o'rgatish mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
16. Chizma bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar va ularning oldini olish.
17. Pedagogik faoliyat va ergonomika mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
18. O'qituvchi «shaxsi omili» muammolari, chizmachilik o'qituvchisi shaxsi.

Laboratoriya mashg'ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. "Munozara" texnologiyasi ishlatiladi, savollar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

VII. Mustaqil ta'lim

1. Fan dasturi bo'yicha yillik taqvimiy rejani ishlash.
2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tahlil etish.
3. Umumiy o'rta maktablari tasviriy san'at darslari uchun konspektlar tuzish.
4. Kasb-hunar kollejlari qalamtasvir uchun konspekt tuzish.
5. Kasb-hunar kollejlari rangtasvir uchun konspekt tuzish.
6. Kompozitsiya mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish.
7. San'at tarixi mashg'ulotlari uchun referat tayyorlash.
8. Kasb-hunar kollejlari haykaltaroshlik mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish.
9. Kasb-hunar kollejlari naqqoshlik mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish.
10. Kasb-hunar kollejlari yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish.
11. Kasb-hunar kollejlari ganchkorlik mashg'ulotlari uchun konspekt tuzish.

VIII. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar **Seminarlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:**

1. Chet el tasviriy san'at o'qitish metodlari tarixi haqida fikrlar.
2. Rossiyada tasviriy san'at o'qitish metodlarining o'ziga xos ko'rinishlari.
3. Natural va geometral metodlari.
4. I.D. Preysler, A.G. Sapojnikov, G.A. Gippiuslarning tasviriy san'at o'qitish metodlarining rivojlanishidagi o'rni.
5. P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiyning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o'qitish uslublari.
6. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.
7. Sharq miniatyura maktablarining tarixi va ularning o'qitish metodlari.
8. K.Beqzod va uning naqqoshlik maktabi.
9. Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.
10. Tasviriy san'at ta'limida didaktik prinsiplar.
11. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'rganish.
12. Kasb-hunar kollejlari tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
13. Tasviriy san'atdan darslarini loyihalashtirish va amalda qo'llash metodi.
14. Tasviriy san'atdan darslarini modellash va amalda qo'llash metodi.

15. Namunaviy darsni prezentatsiyalar bilan tashkil etish va uni o'tkazish metodi.
16. Muhandislik grafikasining boshqa fanlar bilan aloqalari.
17. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish.
18. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish. o'qituvchining darsga tayyorlanishi.
19. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qo'llanmalar.
20. Geometrik yasash mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
21. Aksonometrik proeksiya mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
22. O'quvchilarga chizmani o'qishni va bajarishni o'rgatish mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
23. Chizma bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar va ularning oldini olish.
24. Pedagogik faoliyat va ergonomika mavzusiga oid darsni tashkil qilish.
25. O'qituvchi «shaxsi omili» muammolari, chizmachilik o'qituvchisi shaxsi.

Seminarlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini ma'ruza qilish va savol-javoblar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IX. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashida muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoni o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish; masofaviy (distsion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Taniqli rassomlarning grafika va rangtasvir turlari bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish;
2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etuvchi san'at asarlarini o'rganish;
3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish;
4. Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizg'i va qoralamalar ishlash;
5. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish hamda ulardan nushalar olish;
6. Shakllarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid pedagogik mashqlar bajarish (Geometrik shakllar misolida).

7. Bosh suyagi yuz qismi bo'laklarining o'ziga hosiligi va tuzilishiga oid pedagogik tasvirlar ishlatish.

8. Tasviriy san'at fanidan o'quv dasturi bo'lim va mavzulari bo'yicha ish rejasini tuzish.

9. Namunaviy darslar uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash va didaktik materiallar to'plash. (ma'ruza matnlari tayyorlash, qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan ko'rgazmali qurollar tayyorlash, prezentatsiyalar yaratish).

10. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan mashg'ulotlarda foydalanishni o'rganish.

11. Chizmachilik bo'yicha maktab dasturi, darsligi, standartlar va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish.

12. Yarim yillik jadvali-mavzuli reja tuzish.

13. Tanlangan mavzu bo'yicha muammoli o'qitish metodlaridan foydalanib dars bayonini tuzish.

14. Chizmachilik darslarida ijodiy izlanish talab qiladigan masalalar tuzish.

15. Grafikadan fakultativ mashg'ulot turlari va ularni tashkil qilish formalari.

16. Chizmachilik kabinetini jixozlash.

17. O'qitishning zamonaviy metodlari.

18. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qurollar.

19. Tanlangan mavzuga oid plakat va model yasash.

20. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar.

21. Chizmalarni bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar.

22. Model va plakatlardan foydalanish metodikasi.

23. O'qituvchining darsga tayyorgarligi va unga qo'yiladigan talablar.

24. Umumta'lim maktablarida chizmachilikni chuqurlashtirib o'rgatish.

25. Chizmachilikdan to'g'arak mashg'ulotlarini tashkil qilish.

26. O'quvchilarni aksonometrik proektsiya bajarishga o'rgatish.

27. O'quvchilarda kesim va qirgimlar bajarish bo'yicha bilimlarni mustahkamlash usullari.

X. Grafik ishlarining mazmuni

1. Yarim yillik mavzuli va tasvirli reja tuzish.

2. Umumta'lim maktablarining "Chizmachilik" fani bo'yicha 1 soatlik dars

ishlanmasini ilmiy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish.

3. Shu darsga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va slaydlar tayyorlash.

4. Kasb-hunar kollejarining "Chizmachilik" fani bo'yicha tanlangan mavzu bo'yicha 2 soatlik dars mashg'ulotining o'qitish texnologiyasini, texnologik xaritasini va dars bayonini tuzish.

5. Shu darsga oid ko'rgazmali qurollar eskizini, tarqatma materiallar va slaydlar tayyorlash.

XI. Kurs ishini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

«Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi» fanlari bo'yicha bajariladigan kurs ishi talabalarida tanlangan mavzusi bo'yicha adabiyotlarni, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlab chiqish faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

tayyorgarligini, oshiradi va mustaqil ijodiy ishlab chiqish faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo'llay olishdan iborat. Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish ya'ni, o'rta umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejarida pedagogik jarayonga bog'liq holda ishlab chiqiladi va har bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi.

Tasviriy san'at bo'yicha kurs ishi mavzusi sifatida ma'lum bir davrning san'at tarixi, mashhur haykaltarosh yoki rassomning hayoti va ijodi, tasviriy san'atdagi turli oqim va yo'nalishlar mavzusi ulug' rassom va ijodkorlarning mashhur asarining tahlili shaklida bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham o'qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirish uchun o'quv rejasida ajratilgan 4 soat ichida kurs ishini mohiyati, tadqiqot olib borish usullari va adabiyotlar bilan ishlab chiqish, ya'ni ularni masalalar qo'yilishi, nima ish qilganligi, ularning mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

- talabada tanlangan mavzu bo'yicha o'z nazariy bilimlari chuqurlashtirish;
- psixologik-pedagogik, metodik va o'quv materiallarini tahlil qilish malakasini o'zlashtirish;

- pedagogik eksperimentni rejalashtirish, tayyorlash va o'tkazish;

- eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi;

- nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egallashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarining ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo'lg'usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o'quv yilining boshida shu o'quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o'zini qiziqitgan mavzuni tanlab olgandan so'ng, bu mavzu bo'yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun kafedraga taqdim etadi. Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so'ng kafedra unga ilmiy rahbar tayinlaydi. Endi talaba kurs ishini o'z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajara boshlaydi. Kurs ishi A-4 (210-297) format qog'ozida bajariladi. Matn joylari tushunarli, aniq yozilishi, agar imkoniyati bo'lsa, yozuv mashinkasida bosilishi yoki kompyuterda terilishi lozim. Bajarilgan chizmalar davlat standart talablariga to'la javob berishi va ular varaqlarda oqilona joylashtirilgan bo'lishi shart.

Kurs ishi risola shaklida bo'lib, unda sarvaraq, mundarija, matn, adabiyotlar ro'yxati va ilova o'rin oladi.

Kurs ishini tahmini mavzulari:

1. Tasviriy san'at fanining o'rta maxsus kasb-hunar kollejaridagi o'rni va ahamiyati.
2. Kasb-hunar kollejarida tasviriy san'at darslarining samaradorligini oshirish usullari.
3. Tasviriy san'at darslarida no'anaviy usullardan foydalanish.
4. Tasviriy san'at darslarida axborot texnologiyasidan foydalanish.
5. Tasviriy san'at darslarida O'zbekiston rassomlarining ijodini o'rgatish metodikasi.

6. Tasviriy san'at darslarida O'zbekiston tarixiy obidalarining tarixini talqin etish yo'llari.
7. Kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslarida ranglar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Tasviriy san'at darslarida ko'rsatmali qurollarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari.
9. Tasviriy san'at darslarida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish.
10. Kasb-hunar kollejlari grafika fanidan to'g'arak ishlarini tashkil etish metodikasi.
11. «Yig'ish chizmasini bajarish» mavzusini o'qitish metodikasi.
12. «Tutashma» mavzusini o'qitish metodikasi.
13. Kesim va qirqim bajarishda yo'l qo'yiladigan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari.
14. Kasb-hunar kollejlari qurilish chizmalari mavzusini o'qitish metodikasi.
15. Aylanani muntazam bo'laklarga bo'lish mavzusini o'qitish metodikasi.

XII. MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNING MAZMUNI.

Malakaviy pedagogik amaliyotni o'tkazish vaqti va tartibi pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasiga asosan amalga oshiriladi. Unda:

- umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'limdagi tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limi mazmuni, davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari bo'yicha ish yuritish;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarining sinflar va kurslar bo'yicha o'quv rejalarida joylashtirish;

- sinf-dars tizimiga rioya qilgan holda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha konspekt, taqvimiy-reja asosida dars o'tish;

- an'anaviy va zamonaviy metod hamda texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish chog'ida tarbiya ishlarni olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.

Malakaviy pedagogik amaliyot davrida o'quv va tarbiya jarayonini tashkil qilish ishlari yaxlit mavzuli guruhlariga va bosqichlarga birlashadi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Bu bilan pedagogik amaliyotining asosiy mazmuni tarkib topadi.

Tashkiliy ishlar

- amaliyotga bag'ishlangan anjumanda qatnashish, umumiy vazifalar bilan tanishish va tashkil etish.

- amaliyot o'tadigan umumiy o'rta ta'lim maktablari yoki kasb-hunar kollejlari bilan yaqindan tanishish. O'quv yurtining rahbariyati, tasviriy san'at fani o'qituvchilari va guruh rahbarlari bilan suhbatlashish.

- tasviriy san'at xonasidagi jihozlar, bezaklar, dars uchun mavjud bo'lgan o'quv plakatlar, modellari, ko'rgazmali qurollari va buyumlari bilan tanishish.

- metodist - o'qituvchi rahbarligida tegishli ish yuritish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish:

- o'quv yurtining ikkinchi yarim yillik uchun o'quv va tadbirlar rejasini o'rganish;

- tasviriy san'at o'qituvchisining amaliyot davridagi ish rejasi bilan tanishish;

- guruh murabbiysining tarbiyaviy ish rejasini o'rganish;
- fan o'qituvchisining ishchi dasturini o'rganish;
- amaliyotchi-talabalar o'quv, tarbiyaviy, metodik ishlari uchun shaxsiy rejalarni tuzish.

- talabalarni o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish maqsadida darslariga kirish va tahlil qilish.

O'quv - tarbiyaviy ishlar

- kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'atdan tajribali o'qituvchilar darslarini kuzatish va tahlil qilish. Bu bilan amaliyot o'tadigan umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-xunar kollejlarda o'qitish jarayonlarini tashkil qilishni tasavvur qilish. Darsning maqsad va vazifalarini belgilash.

- pedagogik tajribani umumlashtirish maqsadida amaliyotchi - talabalar o'z guruhdoshlarining darslarini kuzatishi va hulosa chiqarishi.

- amaliyot davrida tasviriy san'at fanining o'quv dasturini bo'lim va mavzular bo'yicha rejasini va o'rnini belgilash.

- namunaviy darslar uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash va didaktik materiallar to'plash.

- kundalik ish rejasini tuzish.

- namunaviy darslar o'tish.

- ilmiy seminarlarda, metodik kengashlarda ishtirok etish, ilmiy-metodik, bitiruv malakaviy ishning mazmunini, amaliy o'rnini belgilashni rejalashtirish va unga oid materiallarni to'plash. Yakuniy hisobot uchun tegishli hujjatlarni yig'ib borish.

Pedagogik, psixologik bilimlar asosida tarbiyaviy ishlarni olib borishi uchun mavjud muhit bilan tanishish:

- o'qituvchilarning kundaliklari bilan tanishish;

- guruh jurnalini tahlil qilish orqali o'quvchilarni bilimlarini o'rganish;

- o'quvchilarni tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishini, qobiliyatini, iqtidorli o'quvchilar shaxsini va ijodkorligini tashxislash;

- o'quvchilarning dars vaqtidagi faolligini, pedagogik va psixologik xususiyatlarini;

- o'quvchilar va ularning ota-onalari, o'qituvchilari bilan suhbatlashish asosida bir o'quvchi shaxsiga va guruhga pedagogik - psixologik xarakteristika tuzish.

- sinf murabbiylarining tarbiyaviy ishlar rejasini bilan tanishish va butun amaliyot davrida bajariladigan shaxsiy rejani tuzish. Tarbiyaviy ishlarni kuzatish va ularda bevosita ishtirok etish.

- o'ziga birlashtirilgan guruhning tarbiyaviy ish rejasini tuzish.

Tarbiyaviy soat mashg'ulotini o'tkazishni o'rganish:

Sinf yoki auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni uyushtirishni o'rganish.

- to'garak ishlarini tashkil etish va uni o'tkazishni o'rganish. Tarbiyaviy ish rejasiga ko'ra o'qituvchi rahbarligida tarixiy kunlarni, tadbirlarni va kechalarni o'tkazish.

- tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash, ularning yashash sharoitlari bilan tanishish va suhbatlashish.

- ma'naviy - ma'rifiy ishlar rejasining bajarilishida murabbiyga yaqindan yordam berish.

Metodik ishlar

- pedagogik amaliyot davrida ilmiy va metodik ishlarda faol qatnashish. O'qituvchi va kursdoshlarining ta'lim-tarbiya ishlaridagi tajribalarini va o'zining amaliyot davridagi faoliyatini doimo tahlil qilib borish.

- pedagogik kengashlarda va metodik birlashmalarda; ilmiy seminar va anjumanlarda qatnashish. Ilmiy – metodik ma'ruzalar qilish.

- kurs va bitiruv malakaviy ishlar uchun materiallar to'plash, pedagogik amaliyotga bag'ishlangan yakuniy yig'ilishda ilmiy va metodik fikr-mulohazalar bilan ishtirok etish. Hisobot hujjatlarini tayyorlash.

- amaliyot davrida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, metodik ishlar yuzasida kursdoshlari davrasida ma'ruza qilish.

XIII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abdiraslov S. "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. – Toshkent. Ilm-Ziyo, 2011.

2. Abdiraslov S., N. Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. (amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2007.

3. Abdiraslov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Toshkent Fan va texnologiya nashriyoti», 2012.

4. Ro'ziev E.I., Ashirboev A.O., "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi". – Toshkent. Ilm-Ziyo 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Ashirbaev A. «Chizmachilik». – Toshkent.; «Yangi nashr», 2008.

6. Abdiraslov S., Boymetov B., Tolipov N. «Tasviriy san'at». – T.: Ilm-Ziyo, 2006.

7. Abdiraslov S., N. Tolipov N. «Rangtasvir». – T.: Bilim, 2005.

8. Boymetov B., Abdiraslov S. "Chizmatasvir", – T.: G'.G'ulom, 2004.

9. Rahmonov I.T. «Chizmachilikdan didaktik o'yinlar». – T., «O'qituvchi». 1992

10. Raxmonov I.T. «Chizmalarni chizish va o'qish». – T., «O'qituvchi». 1992.

11. Isaeva M.Sh. «Chizmachilikdan topshiriqlar». – T., «O'qituvchi». 1992.

Elektron ta'lim resurslari

12. www.nbef.intal.uz.

13. www.Ziynet.uz.

14. www.pedagog.uz.

15. www.tdpu.uz

16. www.lex.uz;

17. www.bilim.uz;

18. www.gov.uz;